

**SIZ MAOSHSIZ ISHDA ISHLAGAN BO'LARMIDINGIZ, YOXUD
AYOLLARNING JAMIYATDAGI O'RNI.***Author: Ashurova Gulbeka Alisher qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mehr-muhabbat, sabr-bardosh, sevgi va go'zallik timsoli bo'l mish beba ho ayollarning qanchalar beminnat yordam berishlari va ularning qanchalar kuchli ekanliklari yoritib beriladi. Qolaversa, qo'llab-quvvatlanilgan ayollar jamiyatda va siyosiy jabhada ham o'z o'rinalariga ega ekanliklari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: ayol sabri, matonat, magnit, texnik robotlar, maosh, siyosat.

Annotation: In this article, we will highlight how grateful and powerful women are, who are symbols of love, patience, love and beauty. In addition, the supported women are shown to have their place in society and on the political front.

Key words: female patience, perseverance, magnet, technical robots, salary, politics.

Аннотация: В этой статье мы подчеркнем, насколько благодарны и могущественны женщины, которые являются символами любви, терпения, любви и красоты. Кроме того, показано, что поддерживаемые женщины занимают свое место в обществе и на политическом фронте.

Ключевые слова: женское терпение, настойчивость, магнит, технические работы, зарплата, политика.

Maoshsiz ishda ishlarmidingiz? Ha asli haqiqat bo'lган bu sarlavha hech kimni o'ziga jalb etmay qo'ymaydi. Maoshsiz ish egalari kim aslida!? Kim ham maoshsiz ishda o'z sabri va kuchini ketkizardi deysizmi? To'g'ri savol albatta... Lekin bunday insonlar haqiqattan ham bor va biz ularni har qadamda uchratishimiz mumkin. Ular metin bardoshli, sabrli, mehrli, hattoki ba'zi vaqtarda erkaklardan ham kuchliroq deya ta'riflanadi. Kim ular? Albatta ayol deb atalmish mo'jizalardir!

Ayol... O'zi qandayin ta'rif berish kerak unga? Butun dunyodagi yaxshi xislatlarni aytsangiz ham ularning mehnati oldida hech narsaga aylanadi-ku.

Ayol so'zining tub ma'nosi nima aslida? Ayol arab tilidagi so'z bo'lib, balog'atga yetgan shaxs ma'nosini beradi.

Ayol - kim? Ayol - Ona! Ayol - jufti halol, opa-singil, qiz farzand... YO'Q! Buning o'zi yetarli emas! Ayol - sirdosh, dardkash, g'amxo'r, uyimizning nuri, qalbimizning huzuri. Ayol - nozik gul! Ayol bir ne'mat aslida. Hech qachon qayta takrorlanmaydigan hamda doimo yaqinlari tomonidan qadrlanishi, ularning ardog'ida bo'lishi, doimo rag'batlantirilishi kerak bo'lган ne'mat... Yilda bor yo'g'i bir marta "Ayollar kuni" dagina yolg'on xushomadlar qilinadigan ojiza emas. Ayolga qancha go'zal ta'rif bersak shuncha kam. Ayollar bir vaqtning o'zida ona, opa-singil va suyukli

yordirlar. Ayol bir o'zini emas ,avvalo, otasi,onasi, akasi, katta hayotga qadam qo'ygach esa turmush o'rtog'ini, oilasini, farzandlarini deya hayot kechiradi. O'zini, o'zligini unutib oilasini deya yashaydi.

Faqat inson emas, hatto jonzotlar ham mehr deya yashaydi. Ayol esa hamisha mehr timsoli bo'lib kelgan. Ular shundayin bir mo'jizaki, bir vaqtning o'zida mehr beruvchi va turmush o'rtog'idan mehr kutuvchi hamdir. Hurmatli erkaklar, mo'jizangizga bir e'tibor berib ko'ring, e'tiboringizni hamda unga qilayotgan munosabatingizni ko'rgan zahotiyoy osmonlarga parvoz etadi, go'yoki o'n sakkiz ming olamda undanda suyukliroq, undanda baxtliroq inson yo'qdek.

Bugungi zamonomiz shunaqangi shiddat bilan rivojlanib borayaptiki, insonlarning ishlarini osonlashtirish, ularga ko'proq dam olish uchun sharoit yaratish maqsadida robotlar, turli xil texnik dastyorlar yaratilmoqda. Bu yaxshi albatta. Ammo, keling, bir narsaga oydinlik kiritib olaylik. Ularni temir matonatli ayollarimiz bilan bellashtirib ko'rsakchi? Kim g'olib bo'larkin-a? Bitta tugmasini noto'g'ri bosish yoki odatdagidan biroz ko'proq miqdorda vazifani bajartirish natijasida buzulib qoladigan, qayta sozlash uchun atigi bir dona uskunasi falon pul turadigan robotlarmi? Yoki o'zi ojiza deb atalishiga qaramasdan, erta sahardan kunini non yopish, mol qarash, nonushta tayyorlash bilan boshlab kechqurun idishlarni yuvish bilan tugatadigan, shunda ham yotib dam olmasdan orzu-havas deya farzandlari uchun yarim tungacha ko'rpa qavib chiqadigan , shuncha ishdan keyin ham lug'atidagi "charchadim" so'zini ishlatmaydigan ayollarmi? Bu qiyoslashdan maqsad robotlarni foydasizga chiqarish emas, balki aslida robot kim ekanligini anglatishdir.

Yuqorida aytilganidek, kunini non yopish bilan boshlab, idishlarni yuvish bilan tugatadigan ayollarning bir kunda necha soat ishslashini va agar ularga maosh berilganda, bir kunda qancha mablag'ga ega bo'lishini hattoki o'ylab ham ko'rmanjamiz. Xo'sh, o'rtacha olib qaralganda ularning "ish vaqt"lari sahargi 5:00 da boshlanadi. Nonushta tayyorlab, farzandlarini o'qishga, turmush o'rtog'ini ishga jo'natgach, kichik tozalash ishlarini qiladi. Eslatib o'tish kerak, TEKINGa... Oddiy bir kafe ofitsiantlari tayyor taomni olib kelishlari evaziga xizmat haqi so'rab turgan bir vaqtda ayollar buni tekinga qilishadi. Uy yig'ishtirish uchun ishchi yollasangiz , sizdan kamida 100-200 ming so'm talab qilishadi. Bola qarash ham o'rtacha narxda bundan kam emas, ayollar esa tekinga qilishadi, ularning darslarini tayyorlatishadi, ovqatlantirishadi, uxlatishadi va eng asosiysi mexr berishadi.

Hayotimiz asosi, ko'rki va millatimiz kelajagi ayol bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Bugungi kunda o'z aqli, bilimi va iste'dodi, mehnatsevarligi va shijoati bilan hayotning hal qiluvchi sohalarini tebratib, bu oila bekaligi bo'ladimi, jamiyat va davlat boshqaruvi, madaniyat va ilm-fan taraqqiyoti bo'ladimi, kichik biznes tadbirkorlik bo'ladimi, mana shunday murakkab vazifalarni ayollar samarali ado etib kelmoqdalar. Bugungi kun ayolining ilmi iqtidori, zakovati, ijodkorligi,

yaratuvchanligi dunyoni yana bir karra lol qoldirmoqda. Ayollar uddasidan chiga olmagan biron bir ish yoki kasb bo'lmasa kerak dunyoda. O'qituvchilikmi, bitmas-tuganmas sabri evaziga hattoki harf tanimas go'daklarni katta doston-u romanlar o'qiy oladigan darajaga olib chiqadi. Shifokorlikmi, bu kasbning taxmiman 50 foizdan ko'prog'ini oq xalatli farishta ayol, opa-singillarimiz tashkil etadi. Savdogarlik, oshpaz, psixolog, yurist, advokat, san'atkorlikda, hattoki bugungi kunda jamiyatimizda "gender tenglik" tamoyili asosida ularni siyosiy kasblarda ham ko'rib turibmiz. Ularda muvafaqqiyatsizlik va to'xtash tushunchalari yo'q. Ular nafaqat oilasi balki jamiyat uchun qandaydir foyda keltirish maqsadida tinimsiz ishlashadi. Ammo, afsuski, jamiyatimizda shunaqangi g'alati bir qarash bor: "...ayollar yo oilada, yo kareyerada muvafaqqiyatlari bo'la oladi". Xo'sh, bu qarash qanchalik to'g'ri? Ayollarning ishlashi mentalitetimizga to'g'ri kelmaydi deya javob beradigan erkaklarimiz aslida ayollarning ulardan ko'ra kuchliroq va sabrliroq ekanligini bilishadi va shu sababdan ayollar ulardan ko'ra muvafaqqiyatlari bo'lishlaridan qo'rqishadi.

Hukumatimizga tashakkurlar bo'lsinki, ayollarni qo'llab-quvvatlash va gender tenglikni kengroq targ'ib qilish maqsadida bir qancha ishlar olib borishmoqda. Vaholanki, bu urinishlar atigi bir necha yillardagina anchagina yaxshi natijalarni ko'rsata oldi. Internet ma'lumotlariga nazar soladigan bo'lsak, Gender tengligi-O'zbekistonda ham ancha rivojlandi. Dunyo ko'rsatkichlari ro'yxatida O'zbekiston 2019-yildan boshlab qatnashishni boshladi. 2019-yil holati bo'yicha O'zbekistonning gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatdagi 189 mamlakat ichida 62-o'rinni egalladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg'armasining ekspertlarining fikriga ko'ra, O'zbekistondagi har 100000 dan 29 ayol gender tengsizlik tufayli vafot etishi aytildi. Ushbu ko'rsatkich hozirgi davrga kelib ancha pasaygan. Biz buni jamiyatimizda ayollarning rahbarlik o'rinlarini ko'p egallayotganidan bilishimiz mumkin. Ular rahbarlikka qadam qo'yganlari sari jamiyatda ayollarga e'tibor, ayniqsa hurmat tushunchalari ortdi, desak adashmagan bo'lamiz. Qolaversa, keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq-manfaatlarini, gender tengligini ta'minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga aylandi.

Jamiyatimiz ayollar boshqaruvi bilan o'sib borishi bu davlatimizning rivojlanishi, uning jahon davlatlari qatorida turishiga yordam bermoqda, desak adashmagan bo'lamiz.

Muvafaqqiyat faqat erkaklar uchunmi? Ayollar bunga haqli emas, degan qarashlarning biror bir asosliroq isboti bormi? Aslida ayollar muvafaqqiyatni o'zlariga tortuvchi magnitdirlar. Ular har qanday sinovni yolg'iz yengib, har qanday muvafaqqiyatga o'z kuchlari bilan erisha oladilar. Ammo shunchaki ularning yonlarida "Men sen bilanman", "Sen buni uddalashingga ishonaman" deya qo'llab-quvvatlab

turuvchi, hamda o'zlarini horg'in sezgan bir paytda suyana oldigan bir tog'ga ehtiyoj sezadilar, xolos.

Umuman olganda, har bir erkak zoti gender tenglikni tan olishi, ayollarni yerga urish, tahqirlash o'rniga ularni qo'llab-quvvatlashlari kerak, deb hisoblayman. Axir, kelajagimiz egalari bo'lmish yoshlarni tarbiyalab, ularni vatanga, oilaga, go'zal qadriyatlarga mehr ruhida voyaga yetkazib beradigan kishilar aynan shu ayollarimiz emasmi?!

Aslida kuchdan, sabr-matonatdan yaralgan ayol hamma narsaga qodir ekanligini tan olishimiz kerak. "Osmon, shlyapangni ol, men yo'ldaman, boryapman..." degan bu yangroq va matonatli so'zlar egasi kosmosga ilk qadam qo'ygan buyuk jasorat timsoli hisoblanmish kosmonavt va muhandis Valentina Tereshkova ayol kishi edi!

Siyosatga kirib kelgan ilk ayol kim ekanligini bilasizmi? Ursula Gertrude fon der Lyayyen — Yevrokomissiya raisi. 64 yoshli siyosatchi ushbu nufuzli lavozimni egallagan ilk ayol hisoblanadi. Internet ma'lumotlariga qaraganda, 2019-yildan buyon Yevropa kommissiyasini boshqarib kelayotgan bu siyosatchining asil kasbi shifokor. Lekin shunday bo'lishiga qaramasdan, siyosat sohasida ayol kishi qanday davlat rahbari bo'la olishini ko'rsatib berdi.

Atlantika okeanidan uchib o'tgan bиринчи учувчи Ameliya Erhart ham ayol kishi edi. Ko'pgina erkaklarning orzusi bo'lgan uchuvchilik kasbida ham muvaffaqiyatga erishgan ayollar talaygina. Mening fikrimcha, zamonaviy va muvafaqqiyatli ayollarning namunasi: quvnoq, yaxshi do'st, chiroqli, aqli va boy. Bunday muvafaqqiyatga erishgan ayollar soni shu qadar ko'pki, bu ro'yxatni davom ettiramiz desak, vaqtlar ham, so'zlar ham yetmaydi.

Ayollarni bugun qadrlaylik, bugun sevaylik, shirin so'zlarni bugun aytaylik. Hamma moddiy taraflama nimagadur erishish, boshqalardan ko'proq narsaga ega bo'lish niyatida yurgan bir paytda, tekinga beminnat, qolaversa, bor mehr-muhabbati bilan oilasi xizmatida bo'lgan ayollarni bugun ardoqlaylik. Ayollarni ona sifatida sevish, singil sifatida erkalash, turmush o'rtoq sifatida hurmat qilish kerak. O'tkir Xoshimov aytganidek, "Ayol kishiga avvalo ona deb qarasak, hammasi joy-joyiga tushadi".

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) O'.Xoshimov. (2015). Daftar hoshiyasidagi bitiklar. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa uyi.
- 2) <https://cyberleninka.ru>
- 3) Kim.kiyosaki. (2016). Boy ayol. Toshkent: Adabiyot uchqunlari nashriyoti.
- 4) www.gazeta.uz